Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

E’zoza Rahmatova – o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: e.rakhmatova.26.95@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-9135-6908

AMALIY TILSHUNOSLIK VA EFL TA’LIMI: ZAMONAVIY METODLAR VA STRATEGIYALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada amaliy lingvistikaning ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati har tomonlama tahlil qilinadi. Unda til o‘rganishning nazariy asoslari hamda ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik keng yoritiladi. Zamonaviy o‘qitish metodlari, xususan kommunikativ yondashuv, task-based learning va interfaol strategiyalarning o‘quvchilar bilimini oshirishdagi roli ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Shuningdek, ushbu metodlarning o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Maqolada til o‘zlashtirish jarayonining samaradorligini oshirishda psixologik va ijtimoiy omillar, jumladan o‘quv muhitining qulayligi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, hamda madaniy omillarning roli alohida ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliy lingvistika yutuqlariga asoslangan yondashuvlar ingliz tilini samarali o‘qitishda muhim omil hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning real hayotiy muloqotga tayyorgarligini sezilarli darajada oshirib, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va tilni erkin hamda faol qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuvlar ta’lim sifatini oshirib, o‘quvchilarda global kommunikatsion kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi hamda zamonaviy talablarga mos mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: amaliy lingvistika, EFL, kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta’lim, interaktiv metodlar

Ezoza Rakhmatova – teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

APPLIED LINGUISTICS AND EFL EDUCATION: MODERN METHODS AND STRATEGIES

Abstract. This article comprehensively analyzes the role and importance of applied linguistics in the process of teaching English. It highlights the close connection between the theoretical foundations of language learning and their practical application. Modern teaching methods, particularly the communicative approach, task-based learning, and interactive strategies, are explained based on scientific sources in terms of their role in improving learners’ knowledge. Furthermore, the impact of these methods on forming students’ communicative competence, developing independent thinking, and increasing motivation for learning is deeply analyzed. The article also emphasizes the importance of psychological and social factors in improving the effectiveness of language acquisition, including a comfortable learning environment, cooperation between teacher and student, and cultural influences. The research results show that approaches based on applied linguistics are an important factor in effectively teaching English. They significantly improve students’ readiness for real-life communication, strengthen practical skills, develop critical

thinking, and expand the ability to use the language freely and actively. In addition, these approaches improve the quality of education, develop global communicative competence in learners, and enable the training of specialists who meet modern international requirements effectively.

Keywords: applied linguistics, EFL, communicative approach, task-based learning, interactive methods.

Эъзоза Рахматова – преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ПРИКЛАДНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И СТРАТЕГИИ

Аннотация. Данная статья всесторонне анализирует роль и значение прикладной лингвистики в процессе преподавания английского языка. В ней подробно рассматривается тесная взаимосвязь между теоретическими основами изучения языка и их практическим применением. Современные методы обучения, в частности коммуникативный подход, обучение на основе задач (task-based learning) и интерактивные стратегии, объясняются на основе научных источников с точки зрения их роли в повышении знаний учащихся. Кроме того, глубоко анализируется влияние данных методов на формирование коммуникативной компетенции студентов, развитие самостоятельного мышления и повышение мотивации к обучению. В статье также подчеркивается значение психологических и социальных факторов в повышении эффективности овладения языком, включая комфортную образовательную среду, сотрудничество между преподавателем и студентом, а также культурные аспекты. Результаты исследования показывают, что подходы, основанные на прикладной лингвистике, являются важным фактором эффективного преподавания английского языка. Они значительно повышают готовность учащихся к реальному общению, укрепляют практические навыки, развивают критическое мышление и расширяют возможности свободного и активного использования языка. Кроме того, данные подходы повышают качество образования, развивают глобальную коммуникативную компетенцию и позволяют готовить специалистов, соответствующих современным международным требованиям.

Ключевые слова: прикладная лингвистика, английский как иностранный язык (EFL), коммуникативный подход, обучение на основе задач, интерактивные методы.

KIRISH

Amaliy lingvistika tilni o‘rganish, o‘qitish va qo‘llash jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganadigan muhim fan sohasi hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilini xorijiy til sifatida (EFL) o‘qitishda bu yo‘nalishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim paradigmasi tilni faqat grammatik qoidalar majmuasi sifatida emas, balki real kommunikativ vosita sifatida o‘rgatishni talab etadi. Richards va Rodgers kommunikativ yondashuvni til o‘qitishning eng samarali metodlaridan biri sifatida ta’riflaydi (Richards & Rodgers, 2001). Ushbu yondashuv tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga urg‘u beradi. Bundan tashqari, task-based learning (TBL) metodida o‘quvchilar tilni aniq vazifalarni bajarish orqali o‘zlashtiradi (Willis, 1996). Zamonaviy EFL ta’limida storytelling, role-play, gamification va digital texnologiyalar: Canva, Kahoot, PowerPoint kabi innovatsion vositalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi amaliy lingvistikaning EFL ta’limidagi rolini chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy metod va strategiyalarning samaradorligini ilmiy asosda baholashdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot sifat (qualitative) tadqiqot metodologiyasiga asoslangan bo‘lib, unda amaliy lingvistika yondashuvlari asosida ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlarning samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqot real o‘quv jarayoniga yaqin sharoitda olib borilgani bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktabining 2-4-sinflarida tahsil olayotgan 30 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Ularning yoshi 7-10 oralig‘ida bo‘lib, ingliz tilini boshlang‘ich darajada o‘rganayotgan o‘quvchilar hisoblanadi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash (random sampling) asosida emas, balki mavjud sinf doirasida (convenience sampling) tanlab olindi. Bu esa tadqiqotni tabiiy pedagogik muhitda olib borish imkonini berdi.

Tadqiqot uch asosiy bosqichda amalga oshirildi. 1-bosqich nazariy tahlil qilindi. Ushbu bosqichda amaliy lingvistika va EFL metodikasiga oid asosiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, kommunikativ yondashuv, task-based learning, interaktiv metodlar hamda motivatsiya nazariyalariga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Bu bosqich tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishga xizmat qildi. 2-bosqich Pedagogik kuzatuvdan iborat bo‘ldi. Ikkinchi bosqichda ingliz tili darslari davomida o‘quvchilarning faoliyati tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatuv jarayonida quyidagi mezonlarga alohida e’tibor qaratildi. Bular o‘quvchilarning darsdagi ishtirok darajasi, og‘zaki nutq faolligi, berilgan topshiriqlarni bajarish sifati va darsga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya. Kuzatuvlar yarim tuzilgan (semi-structured observation) shaklida olib borildi va natijalar kundalik yozuvlar orqali qayd etib borildi. 3-bosqich esa amaliy tajriba (intervention)dan iborat bo‘ldi. Uchinchi bosqichda zamonaviy metodlar asosida maxsus tashkil etilgan darslar o‘tkazildi. Tajriba 6 hafta davomida olib borilib, haftasiga 3 marotaba dars mashg‘ulotlari tashkil etildi. Har bir darsda quyidagi kommunikativ yondashuv (CLT), task-based learning (TBL), storytelling, role-play va dramatizatsiya, hamda gamification elementlari metodlardan kamida bittasi qo‘llanildi.

Masalan, bir haftalik darslar davomida o‘quvchilar “At the shop” mavzusida rolli o‘yinlarda ishtirok etdi, boshqa haftada esa “My dream school” mavzusida kichik loyihalar tayyorladi. Storytelling metodida esa o‘quvchilar oddiy syujet asosida hikoya tuzish va uni og‘zaki ifodalash mashqlarini bajardi. Tajriba davomida o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida dars boshida va yakunida qisqa diagnostik topshiriqlar (pre- va post-activity assessment) o‘tkazildi. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning lug‘at boyligi, gap tuzish qobiliyati va og‘zaki nutq faolligini aniqlashga qaratildi. Olingan ma’lumotlar tavsifiy tahlil usuli orqali o‘rganildi. Natijalar foiz ko‘rsatkichlari va sifat tavsiflari asosida umumlashtirildi. Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi real o‘quv jarayoniga asoslangan bo‘lib, zamonaviy metodlarning samaradorligini amaliy jihatdan aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari zamonaviy metod va strategiyalarning ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar pedagogik kuzatuv natijalari, diagnostik topshiriqlar (pre- va post-assessment) hamda o‘quvchilarning faol ishtiroki asosida tahlil qilindi. Tajriba boshida o‘tkazilgan diagnostik topshiriqlar natijasiga ko‘ra, o‘quvchilarning 60% qismi oddiy gaplarni mustaqil tuzishda qiynalgan, 25% o‘quvchi faqat tayyor strukturalar asosida javob bera olgan, atigi 15% o‘quvchi esa nisbatan erkin muloqot qila olgan. 6 haftalik tajriba yakunida olingan natijalar esa sezilarli ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatdi. O‘quvchilarning 70% qismi oddiy mavzular doirasida mustaqil gap tuza olish darajasiga yetdi. 20% o‘quvchi qisqa dialoglarda faol ishtirok eta oldi. Faqat 10% o‘quvchi hali ham qo‘shimcha yordamga muhtoj ekanligi aniqlandi.

Kommunikativ yondashuv (CLT) asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning nutq faolligi keskin oshgani kuzatildi. Dars davomida ingliz tilida gapirishga urinishlar soni deyarli ikki barobarga oshdi. O‘quvchilar xatodan qo‘rqmasdan muloqot qilishga harakat qildi.

Role-play va dramatizatsiya mashg‘ulotlari ayniqsa samarali natija berdi. “At the shop” va “At the doctor” kabi mavzularda o‘tkazilgan rolli o‘yinlarda o‘quvchilarning 80% faol ishtirok etdi. Ushbu metod o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirdi.

Storytelling metodi o‘quvchilarning nafaqat til, balki ijodiy fikrlash qobiliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tajriba boshida o‘quvchilarning faqat 30% hikoya tuza olgan bo‘lsa, yakuniy bosqichda bu ko‘rsatkich 65% ga yetdi. O‘quvc-

hilar yangi o‘rganilgan so‘zlarni hikoya ichida qo‘llashni boshladi.

Task-Based Learning (TBL) metodida bajarilgan loyihaviy ishlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirdi. “My dream school” va “My future profession” kabi topshiriqlarda o‘quvchilarning 75% o‘z fikrini oddiy gaplar orqali ifodalashga erishdi.

Gamification elementlari (ball, badge, leaderboard) qo‘llanilganda o‘quvchilarning darsga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Kuzatuvlarga ko‘ra, o‘yin elementlari mavjud darslarda o‘quvchilarning ishtirok darajasi 85-90% gacha yetgan, an’anaviy darslarda esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 60-65% ni tashkil etgan. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish ham ijobiy natija berdi. Xususan, Kahoot platformasi orqali o‘tkazilgan interaktiv testlar o‘quvchilarning diqqatini jamlashga va o‘zlashtirish darajasini tezkor baholashga yordam berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy metodlar kompleks qo‘llanilganda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, nutq faolligi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan to‘liq mos keladi. Harmer interaktiv metodlar o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi (Harmer, 2007). Guruh muhokamalari ham kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar fikr bildirishni, boshqalarga javob berishni va suhbatni davom ettirishni o'rganadilar (Rustamova, Gaybullayeva, 2026). Tadqiqot natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Ellis vazifaga asoslangan ta’lim metodini til o‘rganishda samarali yondashuv sifatida baholaydi (Ellis, 2003). Ushbu tadqiqotda ham TBL o‘quvchilarning amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (Kahoot, Canva) darslarni yanada interaktiv va samarali qiladi. Bu o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Biroq, ushbu metodlarni samarali qo‘llash o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq. Agar o‘qituvchi metodlarni to‘g‘ri qo‘llamasa, kutilgan natijaga erishish qiyin bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, amaliy lingvistika ingliz tilini o‘qitishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy metod va strategiyalar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Amaliy jihatdan quyidagilar, kommunikativ yondashuvni darslarning asosiy qismi sifatida qo‘llash, vazifaga asoslangan ta’lim orqali real vazifalar tashkil etish, Storytelling va role-play metodlarini keng joriy etish, o‘yin texnologiyalari orqali motivatsiyani oshirish, raqamli vositalardan (Kahoot, Canva) samarali foydalanish tavsiya etiladi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning tilni samarali o‘zlashtirishiga va ularning global kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford University Press.
2. Harmer, J. (2007). *How to teach English*. Longman.
3. qizi Rustamova, D. S., & qizi Gaybullayeva, D. F. (2026). The Role of Group Discussions in Fostering Speaking Skills and Enhancing Students’ Emotional Development. The Lingua Spectrum, 3(1), 521-526.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Willis, J. (1996). *A framework for task-based learning*. Longman.